


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8538,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 7,7 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **791,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 94,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7747,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 92,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **822,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 61,8 %)

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar- sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8538,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **7,7 %** ga kamaydi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **90,7 %** va yirik korxonalar hissasiga **9,3 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani **24,7 %** ulush bilan **2 109,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,4 %** ulush bilan **31,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.





YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- sentabr oylari yakuniga ko'ra, **7747,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 7,9 % ga kamaydi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **90,7 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Muzrabot (98,7 %), Uzun (98,0 %), Qiziriq (97,8 %), Qumqo'rg'on (97,6 %), Boysun (97,0 %), Oltinsoy (96,3 %), Angor (96,3 %) va Sherobod (96,1 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Denov (100,8 %), Bandixon (100,3 %) tumanlarida va Termiz shahrida (100,2 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	8538,6	92,3	791,1	94,3	7 747,5	92,1
Termiz shahri	1722,4	100,2	507,2	83,9	1 215,2	109,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	415,0	85,4	15,2	150,0	399,8	84,1
Angor	335,1	90,8	12,4	96,6	322,7	90,6
Bandixon	31,6	100,3	1,6	-	30,0	95,3
Boysun	353,6	87,8	10,6	64,5	343,0	88,8
Muzrabot	393,5	84,1	5,2	3,1 m.	388,3	83,3
Denov	2109,2	100,8	94,6	197,5	2 014,6	98,5
Jarqo'rg'on	444,9	85,0	21,7	96,2	423,2	84,5
Qumqo'rg'on	393,4	84,9	9,5	69,3	383,9	85,4
Qiziriq	356,9	82,8	7,8	67,4	349,1	83,2
Sariosiyo	404,2	87,6	20,1	110,1	384,1	86,7
Termiz	132,8	76,6	24,5	74,9	108,3	77,0
Uzun	290,8	88,3	5,8	2,2m.	285,0	87,3
Sherobod	425,0	88,7	16,6	87,9	408,4	88,7
Sho'rchi	730,2	88,7	38,3	153,2	691,9	86,7

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **5,7 %** ga kamaydi va **791,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 747,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **7,9 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,7 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (98,7 %), Uzun (98,0 %), Qiziriq (97,8 %), Qumqo'rg'on (97,6 %), Boysun (97,0 %) va Oltinsoy (96,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (29,4 %), Termiz (18,5%), Sho'rchi (5,2 %) va Bandixon (5,0 %) tumanlarida kuzatildi.



**SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 224,3 ming so'm (2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 9,7 % ga kamaydi).

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz shahri (9 526,7 ming so'm), Denov (5 459,9 ming so'm) va Sho'rchi (3 487,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	3 224,3	90,3
Termiz sh.	9 526,7	80,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 341,8	83,7
Angor	2 525,5	89,0
Bandixon	420,1	91,0
Boysun	3 051,3	89,9
Muzrabot	2 771,1	82,6
Denov	5 459,9	96,3
Jarqo'rg'on	2 033,2	83,5
Qumqo'rg'on	1 674,7	90,3
Qiziriq	3 125,7	74,9
Sariosiyo	1 923,9	85,2
Termiz	1 715,1	106,7
Uzun	1 691,5	86,8
Sherobod	2 188,7	86,9
Sho'rchi	3 487,2	87,5

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari



Chorva (parranda) bozorlari

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo

Shu jumladan:

Dehqon bozorlari

Chorva bozorlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo

822, mlrd. so'm, 100 %

Dehqon bozorlari


437,6 mlrd. so'm, 53,2 %

Chorva bozorlari

385,2 mlrd. so'm, 46,8 %

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar- sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **822,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **38,2** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **437,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **75,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **385,2**mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **51,3** %) tashkil etdi.

Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar- sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **437,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **385,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	822,8	61,8	437,7	75,6	385,1	51,3
Termiz sh.	50,3	84,5	50,3	84,5		
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	89,2	64,4	47,3	89,3	41,9	49,0
Angor	32,8	55,0	20,4	59,5	12,4	48,9
Bandixon	7,9		1,5		6,4	
Boysun	58,6	67,0	28,5	65,3	30,1	68,7
Muzrabot	101,4	62,1	26,1	48,8	75,3	68,5
Denov	100,4	63,3	92,4	81,2	8,0	17,9
Jarqo'rg'on	52,7	52,9	31	67,2	21,7	40,6
Qumqo'rg'on	73,7	65,9	48,3	139,7	25,4	32,9
Qiziriq	49,2	52,8	10,4	31	38,8	65,1
Sariosiyo	99,8	81,7	19,5	67,3	80,3	86,1
Termiz	11,4	38,2	0,5	62,3	10,9	37,6
Uzun	24,7	50,5	16,3	94,7	8,4	26,5
Sherobod	19,7	36,9	18,6	84,8	1,1	3,5
Sho'rchi	51,0	48,9	26,6	69,3	24,4	37,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



7,2
mlrd. so'm

Tuzlamalar



183,5
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



22,4
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

52,3
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



19,2
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

11,0
mlrd. so'm



Tuxum

89,0
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

15,6
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

5,7
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

6,0
mlrd. so'm



Ziravorlar

25,7
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **437,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**183,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **385,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **296,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **76,7** mlrd. so'mni, otlar **9,3** mlrd. so'mni, parrandalar **2,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar- sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ni tashkil etib, 129,7mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 20,7 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	129,7	79,3	15,4	77,3	114,3	79,6
Termiz sh.	44,8	86,8	0,2	55,8	44,6	87,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	3,1	74,7	-		3,1	74,7
Angor	5,5	78,0	-		5,5	78,0
Bandixon	0,3	80,3	-		0,3	80,3
Boysun	3,2	87,1	-		3,2	87,1
Muzrabot	2,9	71,1	-		2,9	71,1
Denov	17,1	82,5	-		17,1	82,5
Jarqo‘rg‘on	4,3	63,6	-		4,3	75,0
Qumqo‘rg‘on	4,0	77,5	-		4,0	77,5
Qiziriq	3,2	72,3	-		3,2	72,3
Sariosiyo	18,4	88,5	14,7	92,7	3,7	75,0
Termiz	6,4	50,9	0,5	18,0	5,9	59,7
Uzun	3,4	77,0	-	-	3,4	77,0
Sherobod	7,0	73,4	-	-	7,0	73,6
Sho‘rchi	6,1	74,6	-	-	6,1	74,6

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil
yanvar-
sentabr

2020- yil
yanvar-
sentabr




2019- yil yanvar- sentabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,3 % dan 0,1 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 129,7 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 79,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 129,6 mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,9 %) hamda 0,2 mlrd. so'm (0,1 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.


	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	129 738,1	100,0	129 593,0	99,9	145,1	0,1
Termiz sh.	44 791,8	34,5	44 646,7	99,7	145,1	0,3
tumanlar:						
Oltinsoy	3 116,5	2,4	3 116,5	100,0	-	-
Angor	5 493,8	4,2	5 493,8	100,0	-	-
Bandixon	306,5	0,2	306,5	100,0	-	-
Boysun	3 261,1	2,5	3 261,1	100,0	-	-
Muzrabot	2 959,3	2,3	2 959,3	100,0	-	-
Denov	17 100,3	13,2	17 100,3	100,0	-	-
Jarqo'rg'on	4 251,8	3,3	4 251,8	100,0	-	-
Qumqo'rg'on	3 998,6	3,1	3 998,6	100,0	-	-
Qiziriq	3 175,9	2,5	3 175,9	100,0	-	-
Sariosiyo	18 386,2	14,2	18 386,2	100,0	-	-
Termiz	6 410,0	4,9	6 410,0	100,0	-	-
Uzun	3 379,3	2,6	3 379,3	100,0	-	-
Sherobod	7 035,7	5,4	7 035,7	100,0	-	-
Sho'rchi	6 071,3	4,7	6 071,3	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar- sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 **887,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- sentabr **577,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,8** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 087,5** mlrd. so'mni (**14,1** % ga kamayish), tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bandixon (3,7 m) va Qumqo'rg'on (167,9 %), Denov tumanlarida (105,9 %) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1887,8	93,0	710,7	112,8	1177,1	84,1
Termiz sh.	477,1	89,1	135,1	77,0	342,0	95,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	48,8	73,5	33,6	92,4	15,2	50,6
Angor	55,9	68,1	6,2	45,9	49,7	72,5
Bandixon	7,4	3,7 m.	6,1	-	1,3	62,1
Boysun	13,4	69,0	1,0	112,1	12,4	66,9
Muzrabot	51,2	73,7	45,5	74,4	5,7	68,5
Denov	496,5	105,9	124,1	156,3	372,4	95,7
Jarqo'rg'on	220,3	100,7	140,8	136,3	79,5	68,8
Qumqo'rg'on	139,5	167,9	118,1	2,4 m.	21,4	63,6
Qiziriq	67,7	104,0	46,2	143,2	21,5	65,5
Sariosiyo	89,4	69,9	4,8	45,5	84,6	72,1
Termiz	109	77,9	5,4	40,4	103,6	81,9
Uzun	16,6	58,7	4,9	68,5	11,7	55,4
Sherobod	46,5	64,4	18,1	52,7	28,4	75
Sho'rchi	48,5	93,9	20,8	159,0	27,7	71,9

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- sentabr oylari yakuniga ko'ra, 912,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 17,6 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 62,4 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Termiz (95,0 %), Sariosiyo (94,6 %), Boysun (92,7 %), Angor (89,0 %) va Denov (75,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

